

Vatanga baxshida shoir shuuri

2021-yil 17-mart kuni "Gidromelioratsiya" fakulteti "Suv ta'minoti muhandislik tizimlari" ta'lim yo'nalishi 106-guruh talabalari hamda guruh murabbiysi G.Axmedjanova hamrohligida Abdulla Oripov xotirasini yodga olish va ziyyarat qilish maqsadida "Adiblar xiyoboni"ga tashrif buyurdilar.



O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov hayoti va ijodi, she'riyatini talqin etish, o'rganish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Shoirning adabiy merosidan avlodlarimiz ko'p yillar ma'naviy oziq olishiga shubha yo'q. Talabalar Abdulla Oripov she'rlarini yoddan o'qib xushnud etdilar. Tashrif ko'tarinki va adabiy ruhda bo'lib o'tdi.

TIQXMMI matbuot xizmati